

Rayhon

"Ishonmay"

Visit "[Ishonmay](#)" on MotoLyrics.com

Bilgin sen hayotim mazmuni bo'la olding
qo'limga emas yuragimga kishan solding
mehrim so'nmay zulmatlarda ham
men sevaverdim qilsa ham alam.
Balki sho'xligim ko'rib ishonmading menga,
balki hayot majburlab shartlar qo'ydi senga,
ayblamayman seni men hech ham
men sevaverdim qilsa ham alam.

O'g'irladim men balki sevgingni,
o'g'irladim men balki sof mehringni
o'g'irlamadim lekin boshqasin
isbotlay qanday?

Aytaolmay senga seni sevaman,
ishonmay menga meni sevasan,
gumondan yaralganmi yo sevgi?
Ayt javobingni...

Gunohsiz gunohkorga aylandim bir zumda,
taqdir hazili qo'pol o'rgandim bir kunda,
ayt javob beray ne ishim uchun?
Isbotmas hatto sevishim bugun.
Gumoningdan yaralgan sevgi egdi boshim,
to'rt devor ichra yig'laverib qolmadi yoshim,
bu yerdan hech ko'rinmas quyosh,
yengilmas sevgim beraman bardosh.

O'g'irladim men balki sevgingni,
o'g'irladim men balki sof mehringni
o'g'irlamadim lekin boshqasin
isbotlay qanday?

Aytaolmay senga seni sevaman,
ishonmay menga meni sevasan,
gumondan yaralganmi yo sevgi?

Ayt javobingni...

Visit [Rayhon](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.

[MotoLyrics.com](#) | Lyrics, music videos, artist biographies, releases and more.